

TALABALARNING NATIJALARINI YAXSHILASHDA SHAXSIYLASHTIRILGAN TA'LIMNING SAMARADORLIGI

Hamroyeva Nodira Salohiddinovna

Samarqand davlat chet tillar instituti 1-kurs talabasi

E-mail: nodirahamroyeva2309@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada talabalarning natijalarini har tomonlama yaxshilashga qaratilgan shaxsiylashtirilgan ta'lim hamda uning samaradorligi haqida so'z boradi. Shu bilan birga shaxsiy yo'nalishdagi ta'lim tizimining mahsuldorligi sifatleri ta'kidlab o'tiladi. Talabalar uchun turli xil differensial yondashuvlar va o'quv dasturlari taklif etiladi. Bularning barchasi o'quvchi qaratilgan individuallashtirilgan o'qitishning unumligini oshirishga yordam beradi.

Kalit so'zlar: differensial yondashuvlar, shaxsiy re'jalar, texnologik resurslar, "Mastery Learning" Self-Determination Teory", "ALEKS" tizimi, ijtimoiy va madaniy kontekst.

Shaxsiylashtirilgan ta'lim - bu har bir talabaning individual ehtiyojlari, qiziqishlari, qobiliyatlari inobatga olgan holda o'qitish jarayonini tashkil qilish. Ushbu yo'nalishdagi ta'lim o'quvchilar bilimini oshirishga, mustahkamlashga, qobiliyatini shakllantirishga, o'z-o'zini rivojlantirishga hamda mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishda unumlilik ya'ni samaradorlik ta'minlaydi. Shuningdek, individuallashtirilgan o'qitish tizimini samarali qilish uchun o'qituvchilarning malakasini oshirish, shaxsiy rejalar ishlab chiqish, zamonaviy interaktiv texnologik resurslardan foydalanish zarur. Natijada, talabalarning darslarini o'zlashtirish qobiliyati yaxshilanadi. Keling, shaxsiylashtirilgan ta'limning samaradorlik sifatleri haqida gaplashsak.

1. Bilimlarning chuqurroq o'zlashtirilishi. Bu sifatga Benjamin Bloom "Mastery learning" yondashuvini taklif qilgan bo'lib, o'quvchilar bilimlarini individual tezlikda o'zlashtirish kerakligini ta'kidlaydi. Agar talabalar ularga mos

keladigan usulda ta'lim olsa, mavzularni chuqurroq anglab, yaxshi o'zlashtiradi. Misol uchun, ingliz tili darsida o'quvchilarni bilim darajasi bo'yicha uch guruhga ajratish. Kuchsiz guruh "elementary" deb nomlangan guruhda noldan boshlab, bilimini mustahkamlaydi, "intermediate" o'rta daraja guruhida matnlar, zamonlar bilan shug'ullanadi, kuchli "advanced" guruh esa murakkab mavzular bilan ishlaydi. Har bir o'quvchi o'z ehtiyojiga mos mavzularni yaxshiroq tushunib bilimlarini mustahkamlaydi.

2. Motivatsiyaning ortishi. Shaxsiy qiziqishlarga mos keladigan o'quv jarayonlari talabalar o'rtasida yuqori darajadagi o'quv motivatsiyasini yaratadi. Bunga qo'shimcha qilib aytadigan bo'lsak, Edward L. Deci va Richard M. Ryan o'z-o'zini boshqarish nazariyasini (Self-Determination Theory) ishlab chiqqan va

talabalarning motivatsiyasi shaxsiylashtirilgan yondashuv orqali oshishi mumkinligini isbotlagan. Misol qilib aytish mumkinki, maxsus yondashuvli ta'limda o'quvchilar o'zlari qiziqishlariga mos mavzuga yokida jarayonga o'quv loyihalari yaratishadi handa ular gamifikatsiya orqa rag'batlantiriladi. O'quvchilar topshiriqni bajargani uchun ball va mukofot oladi. Ushbu usul talabalar orasida raqobat ortishi orqali umumiy bilim darajasi oshishiga yordam beradi.

3. Texnologiyalardan foydalanish -talabalar uchun adaptiv dasturiy ta'minotlardan foydalanishdir. Masalan " ALEKS " tizimini olsak. Ushbu dastur o'quvchining bilim darajasini

baholab, bilim bo‘shliqlarini aniqlab unga moslashgan mashqlarni taklif etadi. Bu dastur shu jihatlari orqali shaxsiylashtirilgan ta‘lim jarayonini samarador qilishga yordam beradi. Chunki "

ALEKS" tizimi bilan bo‘shliqlarini to‘ldirishga, shaxsiy yondashuvga hamda ta‘limga katta e‘tibor qaratadi. Bundan tashqari Sugata Mitra "Hole in the Wall" tajribasi ham texnologiyalar talabalarning o‘z-o‘zidan o‘qishini qanday qo‘llab-quvvatlashini ko‘rsatadi. Hole in the Wall texnikasi – bu ta‘limga minimal aralashuv orqali bolalarni o‘z-o‘zidan o‘rganishga rag‘batlantirishga asoslangan ta‘limiy yondashuv bo‘lib, uni 1999-yilda hind olimi Sugata Mitra ishlab chiqdi. Bu tajriba bolalarga kompyuter va internetga erkin kirish imkoniyatini berish orqali ularning mustaqil ta‘lim olish qobiliyatlarini o‘rganishga qaratilgan

4. Talabalar ishtirokini ta‘minlash. Lev Vygotsky o‘zining ijtimoiy o‘rganish nazariyasida o‘rganishni ijtimoiy va madaniy kontekstda qarab, shaxsiylashtirilgan ta‘limda talabaning faol ishtirokini ta‘minlashni muhim deb hisoblaydi. Bilimni mustahkamlash yo‘lida asosiy narsa ham ishhtirok hisoblanadi. Shu sababli har bir

o‘quvchining ishtirokini ta‘minlash maqsadida ulardan semestr boshida maqsad va rejalarini yozib topshirish so‘ralishi shu bilan birga har haftada ularning maqsadga erishish jarayoni tahlil qilinishi kerak. Ularda shu paytda ma‘suliyat hissi avvalgidanda oshadi va ular qo‘llaridan kelgancha har doim darslarda shtirok etishadi.

5. Mentorlik dasturlari samaradorligi. Mentorlik dasturlari — bu tajribali mutaxassislar (mentorlar) tomonidan yangi boshlovchilar yoki rivojlanayotgan kadrlarni (mentilarni) qo‘llab-quvvatlash, yo‘l-yo‘riq ko‘rsatish va bilim almashish

jarayonidir. Ushbu dasturlar ta‘lim, biznes va boshqa sohalarda keng qo‘llanilib,

ishtirokchilarning kasbiy va shaxsiy rivojlanishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Universitetda har bir talaba uchun ustoz tayinlanadi. Masalan, talabaga akademik masalalarni hal qilishda yoki karera rejalashtirishda individual yordam beriladi. Talabalar bilan muntazam ravishda maslahatlashuvlar o‘tkaziladi. Natijada, talabaning qiyinchiliklarga yechim topish ko‘nikmalari rivojlanadi, ta‘lim jarayonida ishonch va motivatsiya oshadi. Mentorlik dasturlari samaradorligi haqida Edward Deci va Richard Ryan shunday dedi (2000): " Ularning o‘z-o‘zini boshqarish nazariyasida mentorlar shaxsiylashtirilgan yondashuv orqali talabalarga maqsadga yo‘naltirilgan ta‘limni ta‘minlashda yordam beradi. Bu talabalarning ichki motivatsiyasini oshiradi va o‘ziga ishonchini kuchaytiradi." Agar shaxsiylashtirilgan ta‘limning yuqorida keltirilgan yondashuvlari to‘liq va samarali ijro etilsa, ko‘plab natijalarga erishish mumkin. Misol uchun, " Mastery learning " tamoyillari asosida talabalar darajalariga mos guruhda o‘qib, tezlik bilan bilimni kuchaytiradi. Yokida " Hole in the Wall " tajribasini olsak. Bu texnika orqali o‘quvchilar darsdan tashqari ham mustaqil ta‘lim olish imkoniyatiga ega.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, shaxsiylashtirilgan ta‘lim talabalar natijalarini sezilarli darajada yaxshilashga yordam beradigan samarali yondashuvlardan biridir. Bu nafaqat talabalar ko‘rsatkich natijalarini yaxshilaydi, balki ta‘lim tizimini butunlay yangi darajaga olib chiqadi. Talabalarda turli xil qobiliyatlar shakllanadi, bilimni chuqur o‘zlashtiradi va ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantiradi. Natijada, ta‘lim jarayoni yaxshilanib, talaba yoshlar kelajakda muvaffaqiyatli mutaxassis bo‘lib yetishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. B.S. Bloom Mastery learning. Educational Leadership, 1984. – P. 4-17.
2. E.L. Deci, R.M. Ryan The "What" and "Why" of goal pursuits: Human needs and the self-determination of behavior. Psychological Inquiry, 2000. – P. 227-268.
3. S. Mitra. The Hole in the Wall: Self-organizing system in education. 2003.–35 p.
4. L.S. Vygotsky. Mind in society: The development of higher psychological processes. Harvard University Press. 1978. – P. 56-67.
5. E.L. Deci, R.M. Ryan. Self-determination theory and the facilitation of intrinsic motivation, social development, and well-being. 2000. – P. 77-89.